

Andijon mashinasozlik instituti “Elektrotexnika,  
elektromexanika va elektrotexnologiyalar”

kafedrasi dotsenti t.f.n Astan Ismailov taqrizi ostida

## DARS JARAYONIDA TALABALARGA PSIXOLOGIK TA’SIR O’TKAZISH USULARI

*Mamadjanov Baxodir Djuraxanovich*

*Andijon mashinasozlik instituti  
“Elektrotexnika, elektromexanika va  
elektrotexnologiyalar” kafedrasi professori, t.f.n  
O‘zbekiston*

*[bm02717272@gmail.com](mailto:bm02717272@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0005-9833-124X*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati, dars jarayonida talabalarga psixologik ta’sir etish orqali mavzuni chuqurroq singdirishga qaratilgan usullar o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixologik ta’sir, mustaqil ta’lim, konspekt, qaytuvchan aloqa, pedagogik faoliyat madaniyati, talablarining xarakteri, uy vazifasi.

### **Kirish**

Bugungi kunda mohir o‘qituvchi tajribasiz o‘qituvchiga nisbatan oz mehnat va vaqt sarf qilib ko‘zlangan maqsadga erishadi, chunki talabalarni doimo musaqil bilim olishga o‘rgatib boradilar. Ular «agar mavzuni o‘zlashtirishga talabalarining kuchi etmasa musaqil o‘zlashtira olmasa, aks holda materialni o‘qituvchining o‘zi tushuntirib berish kerak», degan qoidaga amal qiladilar.

Tajribali o‘qituvchilar talabalarni kitob bilan ishlashga, konspekt tuzishga, ijodiy ishlarni tashqil etishga va bajarishga o‘rgatishga alohida e’tibor beradilar. Masalan, V.F.Shatalov talabalarni bevosita yaratuvchi fikrlashlarini rivojlantirishga oid usullar sistemasini qo‘llaydi, keng ko‘lamdagi topshiriqlarni, turli xil o‘ziga xos musaqil ishlarni bajartiradi. Topshiriqlarni aksariyat qismini talabalarining o‘zlari musaqil bajaradilar. Bunga erishish uchun u darsda etalon masala echimini talabalarga ko‘rsatadi va qaysi masalalar shu turdagi masalalar ekanligini talabalardan so‘raydi. Bu masalalarni (ularni echish va murakkabligi cheklanmagan holda) talabalar o‘zlari musaqil ishlaydilar. Ayniqsa, dalillarni mustaqil tahlil qilib, umumlashtirib va xulosa yasab, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda talabalar musaqil ishi nihoyatda foydali bo‘ladi. Darsda talabalarni kitob bilan musaqil ishlarini tashkil qilishda o‘qituvchi tezkor talabani to‘xtatmaydi, asa-syokin o‘zlashtirayotgan talabani shoshiltirmaydi savolga to‘g‘ri javob bergan talabaga darhol navbatdagi savolni beradi, xatolikka yo‘l qo‘ygan talabaga esa qo‘shimcha topshiriq beradi. Yosh o‘qituvchilar talabalar musaqil ishlarini tashkil etishga etarli darajada mas’uliyat bilan e’tibor bermaydilar. Talabalar ham ularga moslashib, o‘qituvchi hammasini tushuntirib qo‘yishini, o‘quv materialidagi muhim joylarni nimaga ko‘proq e’tibor berish kerakligini ham o‘qituvchi aytib berishini ko‘tadilar. Natijada talabalar aksariyat hollarda musaqil ishlashga o‘rganmay qoladilar. Talabalarining individual qobiliyatlarini doimo ko‘zatib,

o'rganib va e'tiborga olib boruvchi o'qituvchilar esa musaqil ishlashni tashkil etish mahoratini egallaydilar.

### **Materiallar va uslublar:**

Talabalarning bilimlarini o'zlashtirish jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun darsda qaytuvchan aloqani mohirona o'rnatish katta ahamiyatga ega. Kuzatuvchanlik qobiliyati va tafakko'ri yaxshi rivojlangan har bir qadamini mulohaza bilan tashlaydigan o'qituvchilar bunday malakalarni tezroq egallaydi.

Psixolog olimlar (A.A.Bodalev va V.S.Kondratevlar) aniqlaganlaridek, mohir o'qituvchilarning «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» baholarga o'qiydigan va o'zlashtirmaydigan talabalar haqidagi tasavurlari o'z ishiga loqaydlik bilan qaraydigan o'qituvchilarga nisbatan anchagina keng bo'lar ekan. Tajribali o'qituvchilar darsni o'zlashtirmaydigan talabalarni o'zlashtirmaslik sabablari bo'yicha turlarga ajratganlar. Ular: bilish doirasini kam rivojlanganligi (e'tiborsiz, xotirasi yomon fikrlash operatsiyalarning shakllanmaganligi va hokazo); hissiy irodaviy doirasida kamchiliklarni mavjudligi (sekin qo'zg'aluvchanlik, ortiqcha jahldorlik, muhimlikning yo'qligi va hokazo); shaxsning integral sifatlarini etarli darajada ifodalanmaganligi (bilishga oid qiziqishlari).

Biz pedagogik mahoratni egallash uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishidan tashqari talabalari kishilarni siyosat, fan, madaniyat, texnika va auditoriyai sohalari bo'yicha nimalar qiziqtirayotganligi bilan ham xabardor bo'lib turishi lozimligi haqida to'xtaldik. Dars to'la o'quv jarayoni kabi ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lishi lozim. Dars bu ham kafedra, ham minbar, umuman olganda o'qituvchi dunyoqarashi (pozisiya)ni ifodalaydi, o'qituvchi o'zining va talabalarning hayotga boshqa mafkuraga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Pedagogik mahoratni egallash kaliti ham darsning o'zidadir.

O'qituvchi o'z faoliyatida talabalarning rivojlanish darajasi, xotirasi, diqqati, irodasi, fikrining ixchamligi va muhim ishlash qobiliyatlarini har doim sinab boradi. Bunda nimalarga amal qilish kerak? Eng avvalo u o'z talabasi-inson haqida yomon fikr aytishga shoshilmasligi zarur. Talabalarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni sinchkovlik bilan o'rganish va ularni tushunishi, mulohazali ish tutishi, talaba qalbiga, uning ruhiyatiga to'g'ri yo'l topish bunyodkor o'qituvchilarga xos bo'lgan hislatlardir.

Darsda qanday qilib eng maqbul psixologik tartibga amal qilish kerak? Eng avvalo guruh xonasidan talaba diqqatini chalg'itadigan, unga halaqit beradigan narsalarni chiqarib tashlash kerak.

Yosh o'qituvchi darsda kimning yo'qligi va talabalar nima bilan shug'ullanayotganliklariga befarq qaramasliklari lozim. Bunday holat har bir fan o'qituvchisiga xosdir, chunki o'qituvchida talabalarga ta'sir etish mahorati etishmaydi. Talabalar esa nihoyatda sertashvish bo'ladilar. Matematikadan tayyorlanmagan uy vazifasi, qiziqarli badiiy asardan hozirgina o'qilgan obraz, u yoqtiradigan futbol yoki hokkey komandasining omadsizligi, do'slar bilan aytishib qolishi-bularni hammasi talaba xotirjamligini buzadigan omillardir. Shuning uchun ham o'qituvchi talabalarni yuz ifodasidan tushunish, ularning diqqatini boshqara olishi-uni qo'zg'atish kabi psixologik bilimlarga va amaliy malakalarga ega bo'lishi lozim. Shundagina eng qaysar talaba ham darsga qaytishi, tinglab o'tirishi mumkin.

Talabalar qiziqishlarini, qobiliyatlarini, fikrlash sur'atini, auditoriyadagi har bir talabaning harakteri va hislatlarini bilishi darsga ijobiy yondoshishining psixologik omillaridir. Ularning

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

e'tiborga olish-pedagogik faoliyatning birinchi kundan to so'nggi daqiqalarigacha qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Turli darslarda o'tkazilgan oddiy hisob-kitob 45 minutli bir darsda o'qituvchi talabalarga o'rtacha 100 ta talab qo'yar ekan. Bu ozmi yoki ko'pmi? Bu savolga javob berish uchun A. S. Makarenkoning «Agar mendan biror kishi siz o'z pedagogik tajribangizni qisqa shaklda qanday qilib ta'riflay olasiz, deb so'rasa, men insonga iloji boricha ko'proq talab qo'yish va uni iloji boricha ko'proq hurmat qilish kerak, deb javob bergan bo'lar edim. «-degan fikrini eslash kifoya. Albatta bu erda gap talabaga qancha talab qo'yish haqida emas, balki qanday talab qo'yish zarurligi haqida borayotir.

Talab qilishga qanday o'rganish kerak? Balki darsga kirib o'qituvchi qanday talab qilayotganligini, talabalar esa ularni qay tarzda bajarayotganligini ko'zatis kerak. Albatta busiz ish bitmaydi. Lekin bunday ish boshlash to'g'ri ham bo'lmaydi. Bu haqda biz juda ko'p turli-tuman, murakkab va ko'p qirrali dalillarni aniqlaymiz. Eng avvalo biz talab qo'yishning mohiyatini, ularni tafsilotini o'rganishimiz kerak. Buning uchun albatta pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasiga oid chuqur bilimlarga ega bo'lish kerak.

Bunday bilim va metodlarni yaxshi o'zlashtirgan o'qituvchilar dars davomida talabalarning ayrim hatti-harakatlarini hisobga olib boradilar va dars yakunida ularni rag'batlantirish, tanbeh berish, jazolash metodlarini qo'llaydilar. Ular qaysi talabaga qanday talab qo'yish lozimligini biladilar. Bu talablarni bajarish jarayonida esa talabalar aniq bir xulq-atvor uslubiga ko'nikib boradilar.

Talab qo'yishning aniq bir shaklini tanlashda pedagogik vaziyatni, ya'ni bu talablarni bajarilish sharoitlarini e'tiborga olish asosiy omillardan biridir. Eng muhimi, pedagog talabi ijrochiga mos va uni bajarilishini oxirigacha etkazilishidir.

Darsda talabalar faqat predmet va hodisalarni faollik bilan o'rganibgina qolmay, balki ularga nisbatan o'z munosabatlarini ham shakllantiradilar. Ba'zi xodisalar ularni hayajonlantiradi, ba'zilariga esa loqayd qaraydilar, ba'zi o'qituvchilarni esa juda yaxshi ko'radilar, ba'zilarini xush ko'rmaydilar. Psixologlar ijobiy hissiyotlar inson faoliyatining kuchli ko'zg'atuvchisi va ilhomlantiruvchisi ekanligini ta'kidlaydilar Hissiyotsiz inson hech kachon haqiqat sari intilmaydi.

Darsning hissiy-intelektual ohangi turli usullari bilan saqlab turiladi. Birinchidan, o'tilayotgan mavzu va qo'shimcha materialda talabalar uchun nihoyatda qiziq bo'lgan ma'lumotning bo'lishi aytadi.

Va nihoyat, o'qitishni talabalarning ijobiy hissiyotlariga asoslanib olib borishning to'rtinchi yo'nalishi o'qituvchini o'quv materialiga bo'lgan hissiy munosabati bilan bog'liqdir. O'qituvchi darsga juda puxta tayyorgarlik ko'rishi, Lekin uni muvaffaqiyatli o'tkaza olmasligi mumkin. Yosh o'qituvchilar shuni yodda tutishlari kerakki, o'quv materialini juda chiroyli, qiyofali, hissiyotlarga boy holda mohirona bayon qilib, talabalarni o'ziga rom etishi mumkin. Bu haqda Flober shunday degan edi: «Ishonch bilan gapirganda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi».

### **Natijalar va muhokamalar:**

Olimlar izlanishlarining ko'rsatishiga qaraganda, tajribali o'qituvchining shaxsiy sifatlari orasida «quvnoq xarakter» doimo ajralib turadi. Chunki, u talabalarni nihoyatda charchagan, diqqatleri o'ta tarqaluvchan bo'lgan holda ham o'qituvchiga darsda ishchi vaziyatni yaratish imkonini

beradi. Bunday holda u talabalarga bir oz dam beradi, birgalikda sevimli qo‘shiqni kuylashni taklif etadi, ba‘zan esa biror qiziqarli hikoya yoki voqeani aytib talabalaridagi charchoqni bartaraf qiladi.

«Maktabdagi xushchaqchaq hayotga xuddi dushmanga, qo‘pol xatoga bo‘lgandek munosabatda bo‘lish biz ko‘pchilik hollarda yo‘l qo‘yadigan jiddiy kamchiligimizdir» - deydi L. N. Tolsoy.

Dars maromi o‘qituvchi mehnatining madaniyatigina bo‘lib qolmay, balki uning intizomi, darsning sifati hamdir. Dars maromi yuqori, Lekin talabalarga mos bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham mohir o‘qituvchilar darsni yuqori maromda o‘tib talabalarda amaliy ko‘nikmalar (masalan hisoblash)ni tarkib toptirishga muyassar bo‘lmoqdalar. Me‘yordagi maromni har qanday buzilishi talabalarining rosmi ishchi kayfiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ularni tezda charchashlariga sabab bo‘ladi.

Darsda eng maqbul maromga erishish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: darsda ko‘pchilikni qanoatlantiruvchi «o‘rtacha» maromni tanlash, talabalarining individual xususiyatlarini e‘tiborga olish, darsda yakka tartibda va hamkorlikda bajariladigan ishlarni oqilona uyg‘unlashtirish, talabalar faoliyatlarini turli-tuman shakllarini qo‘llash, vaqtdan iloji boricha samaraliroq foydalanish. Dars maromini asa-syokin oshirib borish lozim. Dars maromi o‘qituvchi tomonidan faqat ish jarayonidagina tanlanadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish yosh o‘qituvchi pedagogik qobiliyatining tezroq rivojlanishiga, tajribali pedagoglar mahorati «sirlari»ni tezroq egallashga imkon beradi. O‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qilgan ekan, u o‘zini boshqarish va takomillashtirishning eng kuchli quroliga ega bo‘ladi, muvaffaqiyatli ishlash usullarini egallaydi (diagnoz-prognoz).

### Xulosa

O‘qituvchi o‘zini-o‘zi ahloqiy barkamollikka erishtirishga intilishi kasb faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishining muhim shartidir. Bunday turtkining bo‘lmasligi ijodkorlikni pasayishiga, o‘z kasbidan, hatto o‘zidan ham norozilikni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

O‘qituvchi o‘zining darsini o‘zi tahlil qilayotganda, quyidagilarga e‘tibor berishi tavsiya etiladi:

- ko‘zlangan maqsad va dars natijasini taqqoslash;
- talabalar bilimi, ko‘nikmasi va kamol topishidagi siljishlarni ko‘zlangan natijaga muvofiqligini aniqlash;
- talabalar darsda ishtiyok bilan ishlaganliklariga alohida e‘tibor berish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inog‘omov R., Toshmurodova K. «Pedagogika fani XXI asrda». T., 2000. «Yangi asr avlodi» nashriyoti.
2. Munavvarov A.K. «Pedagogika». T., «O‘qituvchi». 1996.
3. Tursunov I., Nishonaliyev U. «Pedagogika kursi». T., 1997.
4. «O‘zbek xalq pedagogikasi antologiyasi». T., «O‘qituvchi». 1995.
5. A.Zununov, M.Xayrullaev, B.Tyxliev, N.Xotamov. «Pedagogika tarixi». T., 2000.